

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

LATIPOVA MUXAYYO IBRAGIMJANOVNA

**BiTeSe-BiSbTe ASOSIDAGI YARIMO‘TKAZGICHLI TERMoeLEKTRIK
MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULINI
ISHLAB CHIQISH**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Latipova Muxayyo Ibragimjanovna

BiTeSe-BiSbTe asosidagi yarimo‘tkazgichli termoelektrik materiallarning samaradorligini oshirish usulini ishlab chiqish.....4

Латипова Мухайё Ибрагимжановна

Разработка способа повышения добротности полупроводниковых термоэлектрических материалов на основе BiTeSe-BiSbTe23

Latipova Mukhayyo Ibragimjanovna

Development of a method for increasing the figure of merit of semiconductor thermoelectric materials based on BiTeSe-BiSbTe.....43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список использованной литературы

List of published works.....47

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI QOSHIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

LATIPOVA MUXAYYO IBRAGIMJANOVNA

**BiTeSe-BiSbTe ASOSIDAGI YARIMO‘TKAZGICHLI TERMOELEKTRIK
MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULINI
ISHLAB CHIQISH**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T3800 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (ispm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy raxbar: **Kasimaxunova Anarxan Mamasadikovna**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Tagayev Marat Baymurotovich**
texnika fanlari doktori, professor

Tukfatullin Oskar Faritovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot: **Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.12.2019.FM/T.01.12 raqamli Ilmiy kengashning 2021 yil «26» 07 soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent sh., Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy, Tel.: (+99871)248-79-94, faks: (+99871)248-79-92, e-mail: info@ispm.uz).

Dissertatsiya bilan institutning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (62 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. Tel.: (+99871) 248-79-59; e-mail: info@ispm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2021 yil «11» 07 kuni tarqatildi.
(2021 yil «11» 07 dagi 62 raqamli restr bayonnomasi).



Sh.B. Utamuradova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

J.J. Hamdamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, k.i.x.

N.A. Turg'unov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Disertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda termoelektrik asbobsozlik nazariyasi va amaliyotining tezkor rivojlanishi, ekologik toza energiya manbalarini keng miqyosda joriy etish, yuqori samarador termoelektrik materiallar, qurilmalar va energiya manbalarini yaratishning yangi fizik-texnologik yondashuvlarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida termoelektr energiya manbalaridan foydalanish atrof-muhitni ifloslantirmasdan elektr energiyasi ishlab chiqarish, shuningdek, olis hududlarni elektr energiya bilan ta'minlash imkonini beradigan qurilmalarni amaliyotga joriy etishni taqazo etadi. Shu jihatdan energiyaga bo'lgan extiyojni qisman qondirish uchun har qanday issiqlik energiyasini to'g'ridan-to'g'ri elektr energiyasiga o'zgartira oladigan termoelektrik energiya o'zgartirgichlari asosida ishlab chiqilgan avtonom qurilmalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda yarimo'tkazgichli birikmalar olishning ko'plab usullari va texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha termogeneratorlar uchun yaxshi termoelektrik materiallar olishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada mavjud usullar elektrofizik parametrlarga bog'liq ravishda termoelektrik samaradorlik Z ning o'zgarishi termoelement shoxchalarini tayyorlash texnologiyasiga tayanadi, aksariyat tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, mavjud ko'plab materiallar, integratsiyalanuvchi termoelektrik xususiyatlarga ega, istiqbolli moddalar deb hisoblanib, materiallar tarkibiga legirovchi moddalarni kiritish, parametrlarining qiymatlarini o'zgartirish va ma'lum darajada rostlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Termoelektrik generatorlarning ishlash va iqtisodiy ko'rsatgichlari bilan e'tiborga molik bo'lishiga qaramay, boshqa mamlakatlarga nisbatan, ularning xususiyatlari, materiallar va tadbiq etish masalalari bo'yicha nisbatan kam tadqiqotlar olib borilmoqda. 2022-2026-yillarda O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi doirasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga energiya tejamkor texnologiyalarni faol joriy etish bo'yicha beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, tizimli yondashuvdan foydalangan holda, termoelektrik qurilmalarni yaratishning zamonaviy usullari, legirovchi qo'shimchalarni kiritish orqali komponentlarni eksperimental tanlash yo'li bilan termoelektrik materiallarning yangi tarkiblarini ishlab chiqish, shuningdek, termoelektrik qurilmalarni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish sohasidagi tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 9 sentabrdagi PF-220-son "Energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-son "Iqtisodiyot va ijtimoiy tarmoqlarning energiya samaradorligini oshirish, energiya

tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha jadal chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalda oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnikasi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III-«Energetika, energiya resurslarini tejash, transport, mashinasozlik va asbobsozlik; zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi kunga qadar termoelektrik hodisalarga oid ko'plab nazariy va eksperimental materiallar to'plangan. Bu boradagi ilmiy izlanishlar T.Kajikava va Y.Sinohara (Yaponiya), L.Chen (Xitoy), V. Jovovich (AQSh), professor A. Kasyana (Moldova) kabi yetakchi olimlari tomonidan olib borilmoqda. R.Simona, R.Yur, J.Borrego, O.Bottgerlar (Germaniya) termoelektrik materialning samaradorlik koeffitsientini oshirish uchun tok tashuvchilarning optimal konsentratsiyasini tanlash kabi bir qator yo'nalishlarda ishlagan.

Issiqlik energiyasini to'g'ridan-to'g'ri elektr energiyasiga aylantirish uchun bir qator termoelektrik qurilmalarni yaratishda barqaror xususiyatlarga va yuqori termoelektrik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan yuqori sifatli termoelektrik materiallar talab qilinadi. Ushbu yo'nalish bo'yicha MDH davlatlari olimlaridan B.S. Pozdnyakov, E.A. Koptelov, A.S. Oxotin, A.A. Efremov, B.M.Goltsman, V.S. Oxotin, A.S. Pushkarskiy, A.L. Vayner, E.V. Osipovalarning bir qator monografiyalari mavjud. A. I. Burshteyn va B.Ya.Moyjes materiallarning haroratga bog'liqlik xususiyatlariga ko'ra, issiqlik balansi tenglamalarini olish orqali, yarimo'tkazgichli termoelementlarni energetikada qo'llanilishining nazariyasi bilan ishlagan. E. K. Iordanishvili ichki yo'qotishlarni hisobga olgan holda ko'p qatlamli termojuftlarni hisoblash usulini ishlab chiqqan. Shuningdek, turli xil TEG konstruksiyalari va ularning tavsifnomalari bo'yicha ma'lumotlar tizimlashtirilgan.

Mamlakatimizning yetakchi universitetlari va texnika oliy ta'lim muassasalarida tegishli soha mutaxassislarini tayyorlashga bo'lgan talab ham keskin o'sib bormoqda. Ushbu sohadagi tadqiqotlar prof., R.A.Avezov, prof., A.M. Kasimaxunova, G. Abdurahmonov, B.L. Oksengendler, Ya. Usmanov, M.B. Nabiyeu, Q. Gaynazarova kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida, issiqlik energiyasini elektr energiyasiga to'g'ridan to'g'ri o'zgartirish uchun mo'ljallangan qurilmalarni yaratishda yuqori samaradorlik koeffitsientiga va barqaror termoelektrik xossalarga ega bo'lgan termoelektrik materiallarni olish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona politexnika instituti ilmiy tadqiqot dasturi va "Farg'ona Avtomat Raschot" MChJ o'rtasida imzolangan "Kichik va o'rta quvvatli

iste'molchilari uchun ekologik toza muqobil energiya manbai-termoelektrik generatorni (TEG) ishlab chiqish" mavzusidagi 54-21-sonli xo'jalik shartnomasi ((21.11.21 yildagi 44-sonli X/Sh ITS buyrug'i) va "Elektroshok" MChJ o'rtasida imzolangan "Fototermoelektr batareyasini ishlab chiqish" mavzusidagi №6-20-sonli xo'jalik shartnomasi (03.16.20 yildagi 6-sonli ITS buyrug'i) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi BiTeSe-BiSbTe uchtalik qotishma asosida yuqori foydali ish ko'effitsientiga ega bo'lgan termogeneratorlarni yaratish imkonini beruvchi samarador termoelektrik materiallarni tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

300 K dan 600 K gacha bo'lgan ishchi haroratlar intervaliga ega bo'lgan termoelementlarni tayyorlash uchun termoelektrik materiallarning tarkibini va olish texnologiyasini aniqlash;

turli kirishmalar bilan legirlangan, optimal xossalarga ega bo'lgan n-Bi₂Te₃-Bi₂Se₃ va p-Bi₂Te₃-Sb₂Te₃ asosidagi termoelektrik materiallarni olish shartlarini aniqlash;

eritish jarayonida qotishmalarning yuqori termoelektrik samaradorligi va qaytariluvchanligini ta'minlaydigan yangi legirlovchi qo'shimchani izlash;

grafik usul va ishchi tenglamalar bilan oldindan berilgan termoelektrik hossalarga ega bo'lgan qotishmalarni olishning texnologik jarayonini olib borilishining optimal shartlarini aniqlash;

termoelektrik qurilmalarni chiqish tavsiflarining o'zgarishini hisobiy baholashdan to konstruksiyasigacha modellashtirishning kompleks vazifalarini amalga oshirish uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'yekti sifatida gorizontal zonali eritish va kukunlarni presslash usullarida olingan BiSbTe (p-turdagi) va BiTeSe (n-turdagi) termoelektrik moddalar olingan.

Tadqiqot predmeti termoelektrik o'zgartirgichlarni elektr yuklamaga ulash rejimlari, vismut telluridi – qo'rg'oshin asosidagi komponentlarni inert gaz bosimi ostida eritish orqali elektron va teshik o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan yarimo'tkazgichli termoelektrik materiallarni ishlab chiqarish texnologiyalarini taqqoslashdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida to'rt zondli o'lchash qurilmasi yordamida termoelektrik materiallarning elektr o'tkazuvchanligi kompensatsion usulda, termoelektr yurituvchi kuch ko'effitsienti differensial usulda hamda issiqlik o'tkazuvchanligini aniqlashda nostatsionar usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

kukunli presslash va gorizontal zonali eritish usullari orqali n- va p-tipli samarali termoelektrik materiallarning tarkibiy qismlarini foiz nisbatlari aniqlangan: n-tip uchun Bi₂Te₃ (85%)-Bi₂Se₃ (15%) va p-tip uchun Bi₂Te₃ (30%) -Sb₂Te₃ (70%);

n-tipli Bi₂Te₃-Bi₂Se₃ termoelektrik materiallarning yuqori qaytariluvchanlik ko'effitsientini ta'minlash uchun legirlovchi modda TeI₄ ning optimal konsentratsiyasi $\sigma = 600 \div 200 \text{ Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$, $\alpha = 200 \div 240 \text{ mkV/K}$ termoelektrik kattaliklarga ega bo'lgan tarkibiy komponentlarga 0,04 mol.% bo'lishi aniqlangan;

ilk bor gorizontaal zonali eritish usuli bilan olingan n- Bi_2Te_3 - Bi_2Se_3 materialini TeI_4 bilan legirlanganda, uning termoelektrik samaradorligi presslangan na'munalarga nisbatan 1,4 marta ortganligi aniqlangan;

gorizontaal zonali eritish usulida $T=1223$ K da 20 daqiqa davomida olingan p- Bi_2Te_3 - Sb_2Te_3 materialiga 1:4 nisbatda Cd kiritilganda, uning termoelektrik samaradorlik koeffitsienti presslangan namunalarga nisbatan ~ 50 % ga ortishi aniqlangan;

300÷600 K harorat oralig'ida n- Bi_2Te_3 - Bi_2Se_3 va p- Bi_2Te_3 - Sb_2Te_3 materiallari asosida olingan termoelementlarda sodir bo'ladigan termoelektrik effektlarning issiqlik oqimiga qo'shadigan hissasini hisobga oladigan matematik model ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

zonali eritish usuli bilan legirlovchi kiritma sifatida TeI_4 dan foydalangan holda termoelektrik moddalarni olish usuli ishlab chiqilgan;

ekspluatatsion ko'rsatkichlarni bashorat qilish imkonini beruvchi termobataveya termoustunlarining elektrofizik parametrlarini hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

foydali ish koeffitsientining eng yaxshi qiymatlari ($\approx 7,2\%$) ga ega bo'lgan samarali termoelektrik moddalarni olish va f.i.k.ni oshirish imkoniyati isbotlangan;

olingan moddalar sifatiga texnologiyaning ta'siri ko'rsatildi va yarimo'tkazgichli material hajmida sodir bo'ladigan fizik hodisalar tushuntirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy ilmiy va texnologik usullar, yarimo'tkazgichli energiya o'zgartirgichlarining parametrlari va xususiyatlarini o'lchash uchun standart va aprobatsiyalangan usullardan foydalanganligi bilan tasdiqlanadi. Natijalar va xulosalar nazariy va eksperimental ma'lumotlarga tayangan fizik tushunchalarga asoslanadi. Eksperimental ma'lumotlarning ishonchliligi ma'lumotlarni o'lchash va ishlov berishda mustaqil kompleks o'lchash usullardan foydalanish va ularga ishlov berish, shuningdek, yarimo'tkazgichlar va ular asosida yaratilgan mahsulotlar texnologiyasi va zamonaviy fizika tushunchalariga muvofiqligi bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati termoelektrik materiallarning energetik, texnik va ekspluatatsion parametrlariga tayyorlash texnologiyasi va muhit ta'sirini bog'liqlik qonuniyatlari ko'ra nazariy hisoblash usullarini kengaytirishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kichik va o'rta quvvatli sanoat korxonalarida iste'molchilari uchun samarador termoelementlardan tashkil topgan doimiy tok generatorlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. BiTeSe - BiSbTe asosidagi yarimo'tkazgichli termoelektrik materiallarning samaradorligini oshirish usulini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uch xil moddadan tashkil topgan BiTeSe (n-tur) va BiSbTe (p-tur) yarimo'tkazgichli termoelektrik materiallar asosidagi termoustunlarni tayyorlash texnologiyalari «FOTON» aksiyadorlik jamiyatida joriy etildi («Uzeltexsanoat» uyushmasining 16.02.2024 yildagi 04–3/232–son ma'lumotnomasi). Natijada

tayyorlangan yarim elementlardan bosim va harorat o'lvhovchi datchiklar, yong'inga qarshi issiqlik datchiklari va termoelektrik o'zgartirgichlar (generatorlar va sovutgichlar) tayyorlashda yarimo'tkazgichli materiallar sifatida foydalanilgan;

dissertatsiyani bajarish jarayonida tayyorlangan termoelektr generatorlar, "Farg'ona IEM" AJda rele himoyasi va avtomatik boshqaruv jihozlari uchun operativ tok manbai sifatida joriy etildi ("Issiqlik elektr stansiyalari" AJning 02.04.2024 yildagi 05–24/642–son ma'lumotnomasi). Natijada korxonadagi mavjud issiqlik energiyasidan foydalangan holda, Zeebek effekti asosida ishlaydigan termoelektrik generatorlardan rele himoyasi va avtomatik boshqarish jihozlari uchun operativ tok manbasi sifatida foydalanilib, elektr energiyasining tejalishidan kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 5460000 (besh million oltmish ming) so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 6 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda bayon etilgan va muhohakamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya materiallari asosida 26 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, 1 ta monografiya, xorijiy jurnallarda 3 ta va respublika jurnallarida 6 ta maqola, ulardan 7 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda chop etilgan. EHM uchun dasturiy mahsulotlarga 3 ta sertifikat olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalarni o'z ichiga olgan holda 133 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ishning dolzarbligi va zarurati asoslangan, mamlakatimizda fan va texnikani rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusiga aloqador muammoning o'rganilganlik darajasi, xorijiy va vatanimizdagi ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy qilinganligi, ishni aprobatsiyadan o'tganligi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

"Termoelektr bo'yicha tadqiqot ishlarining zamonaviy holati" deb nomlangan **birinchi bobda**, termoelektrik energiyani olish usullari holati tahlil etilgan. Qayta tiklanadigan, ekologik toza va atrof-muhitni ifloslantirmaydigan sifatli elektr energiyasini ishlab chiqarishning printsiplial jihatdan yangi usullarini olish amalga oshirilgan. Samaradorligi yuqori termoelementlarning shoxchalarini tayyorlash uchun yarimo'tkazgichli materiallarni olishning texnologik usullari taqqoslangan. Termoelektrik moddalarni olishning rivojlangan usullarini o'rganish orqali kelajakdagi tadqiqot muammolari aniqlandi. Shu sababli, kichik va o'rta

energetikada termoelektr ta'minot manbalaridan tobora ko'proq foydalanilmoqda. Ushbu ma'lumotlar asosida bir qator vazifalar belgilab olindi.

“Termoelement shoxchalarining elektrofizik parametrlarini modellashtirish” deb nomlangan **ikkinchi bobda**, termoelektr generatorlari rivojlanishining har bir bosqichida amalga oshiriladigan issiqlik-energetik hisoblash uchun tenglamalar va munosabatlar tizimining ayrim xususiyatlarini hisobga oladigan maxsus yechim usullari ko'rib chiqildi. Hisob-kitoblarning asosiy maqsadi tanlangan elementlarning taqdim etilgan qabul qilish shartlari uchun yetarli bo'lgan barcha qismlarni va o'lchamlarini tanlashdir. Ushbu usullardan foydalanib, termoelektrik materialdan tayyorlangan termoelement modellashtiriladi. Termoelektrik materiallarni tanlash termoelektrik samaradorlik Z ning haroratga bog'liqligi bilan aniqlandi. Termoustunni hisoblash uchun o'rtacha parametrlar usulidan foydalanilgan.


Ushbu usul yordamida Q_0 i Q_1 issiqlik oqimlari shuningdek, V kuchlanishda, α , χ , ρ o'zgarma qiymatlarida va termoelektrik materiallarning xususiyatlari T_0 dan T_1 gacha bo'lgan harorat oralig'ida, ularning haroratga bog'liqligini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydigan holatida hisob-kitoblar amalga oshirildi. Misol uchun, 85%og'ir. Bi_2Te_3 -15%og'ir. Bi_2Se_3 +0,04 mol.% TeI_4 qotishmasi uchun termoEYuK koeffitsienti va solishtirma elektr qarshiligi 300 – 600 K harorat oralig'ida quyidagi funktsiyalar bo'yicha qoniqarli tarzda approksimatsiyalanadi


$$\alpha(T) = -0,001324x^2 + 1,189x - 71,3$$

$$\rho(T) = 0,0008\ln(x) - 0,00397$$

$$\chi(T) = 0,00000077x^3 - 0,00081x^2 + 0,2569x - 4,8089 \quad (1)$$


1-rasmda ko'rsatilgan approksimatsiya Microsoft Excel yordamida 2, 3 darajali polinom va logarifmik trend chizig'i yordamida qurilgan. Approksimatsiyaning ishonchlilik qiymati R^2 bilan belgilanadi (1-rasmdagi shtrix chiziq). Natijalardan ko'rinib turibdiki, termoEYuK, solishtirma qarshilik va issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientlari haqiqiy qiymatlardan 2% dan ko'p bo'lmagan hatolik bilan aniqlangan.





1-rasm. 85%og‘ir. Bi_2Te_3 – 15%og‘ir. Bi_2Se_3 + 0,04 mol.% TeI_4 n-tipidagi yarimo‘tkazgichli qotishmaning termoEYuK koeffitsienti (a), solishtirma elektr qarshiligi (b) va issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsienti (c)ning haroratga bog‘liqligi. Approksimasiya shtrixlar bilan ko‘rsatilgan (1)


Algoritmi tuzishda termoelektrik batareyaning ishlash xususiyatlari hisobga olingan.



2-rasm. Termoelektrik effektlar bilan bog‘liq bo‘lgan materiallar xossalari va kattaliklarini hisoblash uchun dasturiy ta‘minot algoritmi.


Issiqlik o'tkazuvchanligi bilan solishtirganda issiqlik oqimlariga termoelektrik effektlarning hissasi, material xususiyatlarining haroratga bog'liqligi (ya'ni Peltze, Tomson va Joule effektlari tufayli issiqlik ajralishi) yuqorida tavsiflangan hisob-kitoblarga asoslanib, haroratlarni aniqlagandan so'ng, materiallarning xususiyatlari va termoelektrik ta'sirlar bilan bog'liq miqdorlar aniqlanadi. 2-rasmda dasturiy ta'minotning ishlash algoritmi keltirilgan.

Dastur C++ Builder 6 da ishlab chiqilgan bo'lib, Windows XP va undan keyingi versiyalari uchun mo'ljallangan (3-rasm).



3-рasm. Dasturning tashqi ko'rinishi

“Vertikal tigellarda qotishma olish uchun texnologik qurilmani tuzilishi va tadqiqot natijalari” deb nomlangan **uchinchi bobda** yarimo'tkazgichli termoelektrik materiallar, vertikal tigelda legirlovchi qo'shimchalar bilan inert gazi ostida eritish orqali yarim elementlarni tayyorlashning texnologiyasi keltirilgan, qurilmaning sxemasi 4-rasmda ko'rsatilgan.




4-рasm. Inert gaz bosimi ostida termoelektrik materiallarni eritish uchun mo'ljallangan qurilmaning prinsipial sxemasi

n-tipli $\text{Bi}_2\text{Te}_3\text{-Bi}_2\text{Se}_3$ va p-tipli $\text{Bi}_2\text{Te}_3\text{-Sb}_2\text{Te}_3$ qotishmalarni olish uchun turli xil tozalikdagi materiallar tayyorlanadi va po'lat gilzaga solingan kvarts tigelga yuklanadi. Keyin gilzada 10^{-2} mm.sim.ust. gacha bo'lgan vakuum hosil qilinadi.

Shundan so‘ng, argon gilzaga 152 kPa gacha to‘ldiriladi, so‘ngra boshlang‘ich komponentlarni eritish uchun sandon 1023 K ga qadar qizdiriladi va bu harorat 20 daqiqa davomida saqlanadi. Bunday holda, qotishma inert gaz (argon) bosimi ostida bo‘ladi va 1023 K haroratda uning bosimi 405-406 kPa ga yetadi. Belgilangan vaqt o‘tgandan so‘ng, sandon tarmoqdan uziladi. Gilzaga havo kiritiladi va kvarts tigel chiqariladi.

Termogeneratorlar uchun mo‘ljallangan termoelektrik materialni presslash ikki bosqichda amalga oshirildi: sovuq – 5,7 t/sm² bosimda va issiq – 633 K haroratda. Presslash bosimi 5 daqiqa davomida ushlab turish orqali 4,6 t/sm² sifatida tanlandi.

Past haroratli n-tipli termoelektrik materialning tarkibi 85%og‘ir. Bi₂Te₃ va 15%og‘ir. Bi₂Se₃, quyidagicha Bi-55,186%og‘ir., Te-38,663% og‘ir., Se-6,151% og‘ir., tanlangan. Asosning termoelektrik xususiyatlarini o‘zgartirish uchun, shuningdek, legirlovchi qo‘shimchani optimal kontsentratsiyasi ham o‘zgartirilishi kerak. Odatda, ma‘lum termoelektrik xususiyatlarga ega bo‘lgan asosni olish uchun legirlovchi moddaning optimal kontsentratsiyasini aniqlash turli xil kontsentratsiyali moddalarning quymlarini olish orqali topiladi.




5-rasm. σ , α , $\alpha^2\sigma$ va M ko‘rsatkichlarining TeI_4 konsentratsiyasiga bog‘liqligi grafiklari

O‘tkazilgan tajribalarga ko‘ra, har bir qotishma modda uchun shixtaga kiritiladigan legirlovchi moddaning optimal kontsentratsiyasi mavjudligini ko‘rish mumkin. Kiritilayotgan legirlovchi modda TeI_4 ning konsentratsiyasi 0 mol.% – 0,12 mol.%, oraliqda o‘zgarib borgan (5-rasm).

Olingan natijalardan 6-rasmda keltirilgan nomogrammani qurishda foydalanilgan. Keltirilgan nomogramma bo‘yicha $\sigma = 1150 \text{ Om}^{-1} \cdot \text{cm}^{-1}$, $\alpha = 196 \text{ mKV/grad}$ ga mos keladigan optimal termoelektrik xossalarga ega bo‘lgan legirlangan materialni olish uchun, shixtaga legirlovchi moddaning (tellur tetraiodidi) qanday optimal kontsentratsiyasini kiritish kerakligini aniqlash mumkin.


Nomogrammaning ordinata o‘qida termoEYuK ko‘effitsienti va elektr o‘tkazuvchanlik ko‘paytmasi, absissa o‘qida esa kiritilgan legirlovchi moddalar - tellur tetraiodidining konsentratsiyasi qo‘yilgan (6-rasm). Shunday qilib, ushbu sinab ko‘rish uchun olingan xom ashyo materiallaridan asos olish uchun eritib, xona haroratida yarim elementlarning σ va α qiymatlarini o‘lchangan. Shundan so‘ng, ushbu parametrlarni ko‘paytirib, nomogrammadan optimal xususiyatlarga ega

materialni olish uchun qotishma ichiga kiritilishi kerak bo'lgan legirlovchi moddaning konsentratsiyasi aniqlangan.



6-rasm. Bi_2Te_3 - Bi_2Se_3 asosining xossalariga bog'liq ravishda legirlovchi modda tellur tetrayodidi (TeI_4)ning optimal konsentratsiyasini aniqlash uchun nomogramma.

Ishlash jarayonida termoelektrik materiallar doim yuqori haroratlar ostida bo'lganligi sababli, ularning issiq uchi haroratini o'zgartirish orqali termoelektrik xususiyatlarini tekshirish kerak. 7-rasmda termoEYuK koeffirsiyenti, elektr o'tkazuvchanligi va issiqlik o'tkazuvchanligining haroratga bog'liqligini natijalari ko'rsatilgan.



7-rasm. Briketlarning termoelektrik tavsifnomalarini haroratga bog'liqlik grafiklari (a) termoEYuK koeffitsiyenti α ; (b) solishtirma elektr o'tkazuvchanligi σ ; (c) issiqlik o'tkazuvchanligi χ ; (d) termoelektrik samaradorlik Z

Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida, tarkibi 85%og'ir. Bi_2Te_3 - 15%og'ir. Bi_2Se_3 bo'lgan 0,04 mol.% TeI_4 legirlovchi modda kiritilgan termoelektrik materialning termoelektrik samaradorligi $Z=2,2 \cdot 10^{-3} \text{ K}^{-1}$ (298 K) dan $1,7 \cdot 10^{-3} \text{ K}^{-1}$ (573 K) gacha o'zgaradi. Termoelektrik samaradorlikning maksimal qiymati $Z=2,55 \cdot 10^{-3} \text{ K}^{-1}$ (423 K) ni tashkil etgan.

p-tip tarkibiga mos keladigan qotishma materialni olish uchun 70%og'ir. Sb_2Te_3 , 30%og'ir. Bi_2Te_3 proporsiya yo'li bilan quyidagi miqdorda: Bi - 15,67% og'ir., Te - 57,18% og'ir., Sb - 27,15% og'ir. aniqlangan. Legirlangan qo'shimcha sifatida Cd dan foydalanilgan. Shixtaga kadmiy 0,1 mol.% dan 0,4 mol.% miqdorda kiritilgan. 8-rasmda olingan legirlangan materiallarning termoelektrik xususiyatlari ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, legirlangan qo'shimchalar konsentratsiyasi olingan materiallarning termoelektrik xususiyatlari bilan chiziqli bog'langan.


Tadqiqot uchun turli xil konsentratsiyaga ega bo'lgan kadmiyli yarim elementlar tayyorlangan. 1-jadvalda hona haroratida toblanishdan oldin va keyingi yarim elementlarning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi va termoEYuK koefitsientining natijalari keltirilgan.



1-jadval

Hona haroratida yarim elementlarning termoelektrik xususiyatlariga kiritilgan legirlangan qo'shimcha konsentratsiyasining bog'liqligi

Tarkib	Legirlovchi modda konsentratsiyasi Cd, mol.%	Toblashgacha			Toblashdan so'ng		
		σ $\text{Om}^{-1} \cdot \text{cm}^{-1}$	α mkV/K	$\alpha^2 \sigma$ mkV/K ² cm	σ $\text{Om}^{-1} \cdot \text{cm}^{-1}$	α mkV/K	$\alpha^2 \sigma$ mkV/K ² cm
30% mol. Bi_2Te_3 70% mol. Sb_2Te_3	0,1	1750	150	39	1080	194	40
	0,2	2570	127	41	1420	185	48
	0,25	2880	120	41	1610	176	49
	0,3	2890	112	36	1680	162	44
	0,4	2800	105	30	1860	135	33

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kiritilgan legirlangan qo'shimchanning konsentratsiyasi ortishi bilan toblanishdan oldin yarim elementlarning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi ortadi, termoEYuK koefitsienti pasayadi. Yarim elementlarni toblanishidan so'ng ularning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi pasayadi, termoEYuK koefitsienti esa toblanmaganlarga nisbatan ortadi.







8-rasm. Cd% og'ir., konsentratsiyasi o'zgarishiga σ , α , $\alpha^2\sigma$ qiymatlarining bog'liqlik grafigi

Haroratning o'zgarishi bilan solishtirma elektr o'tkazuvchanligi va termoEYuK koeffitsientini o'rganishda (9-rasm) haroratning ortishi bilan dastlabki davrda solishtirma elektr o'tkazuvchanligi pasayib, termoEYuK koeffitsienti ortishi aniqlandi.

Haroratning orttirib borilishi bilan termoEYuK koeffitsienti maksimal darajaga yetadi va keyin kamayadi, elektr o'tkazuvchanligi esa pasayishda davom etadi.






9-rasm. Harorat o'zgarishi bilan kiritilayotgan legirlovchi modda – kadmiy konsentratsiyasining termoEYuK koeffitsienti (a) va solishtirma elektr o'tkazuvchanligi (b)ga ta'siri

Haroratning o'zgarishi bilan $\alpha^2\sigma$ qiymatining o'zgarishi 10-rasmda ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, Cd konsentratsiyasi 0,25 mol.% da qo'shilgan namunaning $\alpha^2\sigma$ qiymati uchun eng yaxshi ko'rsatgichga ega bo'lgan.

Legirlangan qo'shimcha konsentratsiyasining α va σ ning haroratga bog'liq ravishda o'zgarishiga ta'sirini o'rganish shuni ko'rsatadiki, legirlangan qo'shimcha konsentratsiyasining ortishi bilan termoEYuK maksimumi yuqori haroratlar tomonga siljigan, hamda mutloq qiymati kamaygan.




10-rasm. Harorat o'zgarishi bilan, kiritilgan legirlangan qo'shimcha - kadmiyning konsentratsiyasiga qarab, $\alpha^2\sigma$ ni o'zgarishini bog'liqligi

Egri chiziqlar: 1 – 0,1% Cd, 2 – 0,2% Cd, 3 – 0,25% Cd, 4 – 0,3% Cd, 5 – 0,4% Cd.

Kadmiy (Cd) bilan legirlangan $\text{Bi}_2\text{Te}_3\text{-Sb}_2\text{Te}_3$ asosning termoelektrik xossalarini haroratga bog'liqligi va 293K dan 573K gacha bo'lgan harorat oralig'ida legirlangan quymani termoelektrik xossalarining o'zgarishini tadqiqot natijalari 11-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, termoelektrik samaradorlik $Z =$

$2,1 \cdot 10^{-3} K^{-1}$ ning maksimal qiymati 293K dan 373K gacha haroratlar intervaliga to‘g‘ri keladi.



11-rasm. Briketlarning termoelektrik xossalarini haroratga bog‘liqlik grafiklari (a) termoEYuK koeffitsienti α ; (b) solishtirma elektr o‘tkazuvchanligi σ ; (c) issiqlik o‘tkazuvchanligi χ ; (d) termoelektrik samaradorlik Z.


Ushbu texnologiyalar yordamida qotishmalarni olish uchun eritish jarayonida maxsus aralashtirish amalga oshirilmagan. Quymalarning uzunligi bo‘ylab termoelektrik xossalarining bir xilligi yuqorida aytib o‘tilganidek, tigeldagi shixta komponentlarini tanlangan joylashuvi tufayli tabiiy aralashtirish orqali erishilgan. Buning uchun 500 g miqdoridagi eritilgan moddaning hosil bo‘lgan quymasi 50 g.li teng qismlarga bo‘lingan va har bir qismdan yarim element tayyorlangan. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, quymalarni termoelektrik xossalarining uzunligi bo‘yicha bir xilligi amaliy talablarga to‘liq javob beradi. Xossalar bo‘yicha tarqoqligi 3% dan oshmaydi.

“Gorizontal zonali eritish yo‘li bilan yarim elementlar uchun materiallarni olish texnologiyasi va tadqiqot natijalari” deb nomlangan to‘rtinchi bobda Uch qorishmali $(\text{Bi}, \text{Sb})_2(\text{Te}, \text{Se})_3$ asosidagi termoelektrik materiallarni gorizontal zonali eritish orqali namunalarni tayyorlash texnologiyasining muqobil usuli keltirilgan. Zonali eritishning afzalliklari ham bor, chunki kristallanish jarayonida harorat zonali bo‘ylab erish natijasida olingan namunalarda yaxshi panjara hosil qiladi. Bundan tashqari, yoriqlar, deformatsiyalar va


qotishma aralashmalarning notekis taqsimlanishi kabi nuqsonlarning shakllanishi deyarli kuzatilmaydi.

n- va p-tipli qotishma olish uchun xuddi presslash usuli uchun tanlangan tarkib tanlandi. Boshlang'ich materiallar kvarts tigelga joylashtiriladi va erish zonasiga kiritiladi. Harorat rejimiga ko'ra, zona besh qismdan iborat. Uchinchi zona eng yuqori haroratga to'g'ri keladi, chunki bu bosqichda eritilgan tarkibiy qismlarning yaxshi erishiga erishish, ularni aralashtirish va kerakli tuzilmani shakllantirish kerak. Taglikning harakat tezligi 15-20 mm/soat oralig'ida bo'lgan. Eritilayotgan materialning harorati, taglikning pastki qismida 0,18 mm diametrli teshikcha ichiga qatirilgan termopara bilan o'lchandi. Eritma tayyor bo'lgach, uning qisman sovishi haroratning asta-sekin pasayishi bilan kamera ichida amalga oshirildi. Oxirgi jarayon qolgan ikkita zonada amalga oshiriladi, bu yerda kamera bo'ylab eksponensial harorat gradienti saqlanadi. So'ng yetarli darajadagi issiq qotishma kameradan olinadi va kesish uchun yuboriladi. Moddani kesish elektr uchqun kesish qurilmasida amalga oshiriladi. Termoelement shoxchalari $4 \times 4 \times 7 \text{ mm}^3$ o'lchamlarda kesilgan. Shoxchalarning ikkinchi partiyasi quyidagi o'lchamlarda tayyorlangan: $4 \times 4 \times 14 \text{ mm}^3$.


Tajribaga ko'ra, har ikkala turdagi o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan shoxchalarda harorat ortishi bilan elektr o'tkazuvchanligi eksponensial ravishda kamayishi aniqlandi (12-rasm). Bundan tashqari, elektron o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan material uchun σ ning pasayishi (egri chiziq 1) kovakli o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan moddaga qaraganda ancha sekinroq (egri chiziq 2) bo'ladi. Ushbu xususiyatlarning haroratga bog'liqligi 420 K gacha o'rganildi. Shu bilan birga, deyarli bir xil tarzda, termoelektr yurituvchi kuch koeffitsienti ortadi (12-rasm). n-tiptan farqli o'laroq, p-tipli materialdagi bu koeffitsient tezroq o'sadi. Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientining pasayishi o'tkazuvchanlikning ikkala turi uchun ham kuzatiladi (13-rasm). Koeffitsientlar qiymatlarini solishtirganda, eng katta χ qiymatlari elektron o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan shoxchalarga mos kelishi aniqlandi. Biroq, $T \approx 360 \text{ K}$ ga erishishi bilan bu parametr ortadi. Ikkala turdagi moddalar uchun issiqlik o'tkazuvchanligining o'zgarish nuqtasi bir xil.




12-rasm. Termobatareya shoxchalarining elektr o'tkazuvchanligini haroratga bog'liqligi. 1-n-tip, 2-p-tip.



13-rasm. Termobatarya shoxchalarining termoEYuK koeffitsiyentini haroratga bog‘liqligi. 1-n-tip, 2-p-tip.




14-rasm. Termobatarya shoxchalarining issiqlik o‘tkazuvchanligini haroratga bog‘liqligi. 1-n-tip, 2-p-tip.



15-rasm. Termobatarya shoxchalarining termoelektrik samaradorligini haroratga bog‘liqligi. 1-n-tip, 2-p-tip.

Materialning termoelektrik samaradorligiga kelsak, kovakli o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan shoxchalar, mutlaq noldan va xona harorati oralig'ida $Z=3,1 \cdot 10^{-3} \text{ K}^{-1}$ qiymatlarga ega ekanligini ko'rish mumkin, bunda elektron o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan shoxchalar $Z=2,85 \cdot 10^{-3} \text{ K}^{-1}$ ga teng bo'ladi. Maksimal samaradorlik qiymatiga 310 K da $Z=2,9 \cdot 10^{-3} \text{ K}^{-1}$ gacha erishiladi (13-rasm).

Termobatareya yuklamasida generatsiya bo'layotgan maksimal quvvatni tadqiqotlarda o'lchangan qiymatlari, uzluksiz o'sib borayotganligini ko'rsatdi. 16-rasmda termobatareyaning foydali quvvatini, sovuq uchining harorati o'zgarmas saqlangan holda va issiq uchining haroratiga bog'liqligi ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, issiq uchining haroratini ortishi bilan va natijada issiq va sovuq uchlari orasidagi harorat farqining ortishi bilan foydali elektr quvvatini qiymati ortadi.



16-rasm. Termoelektrik o'zgartirgichlarning yuklamasidagi elektr quvvatni haroratga bog'liqligi

XULOSA

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot va texnologik-hisoblash ishlari natijalariga ko'ra quyidagi xulosalar qilindi:

1. Termogeneratorlar uchun mo'ljallangan BiTeSe va BiSbTe asosidagi termoelektrik materiallarni olishning optimal shartlari aniqlandi: kukunli presslash usulida $P=5,7 \text{ t/sm}^2$ bosim ostida va $T=293 \text{ K}$ da $5 \div 10$ daqiqa davomida, shuningdek gorizontali zonali eritish usulida $T=1023 \text{ K}$ da 20 daqiqa davomida.

2. $\sigma = 600 \div 200 \text{ Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$, $\alpha = 200 \div 240 \text{ mkV/K}$ termoelektrik kattaliklarga ega bo'lgan tarkibiy komponentlarga 0,04 mol.% miqdorda qo'shilganda yuqori qaytariluvchanlik koeffitsientini ta'minlaydigan TeI_4 legirlovchi qo'shimchaning optimal konsentratsiyasini aniqlash uchun ishchi tenglama olindi va grafik taklif etildi.

3. Gorizontal zonali eritish usuli natijasida olingan n-Bi₂Te₃-Bi₂Se₃ materialiga TeI₄ qo‘shilishi uning termoelektrik samaradorligini presslash natijasida olingan namunalarga nisbatan 40% ga ortirishi aniqlandi.

4. Xona haroratida maksimal samaradorlik ko‘rsatgichiga ega bo‘lgan p-Bi₂Te₃-Sb₂Te₃ asosidagi materialni olish uchun, kiritilayotgan legirlovchi qo‘shimcha Cd ning optimal konsentratsiyasi 0,25 mol.% tashkil etishi kerakligi aniqlandi. Natijada termoelektrik samaradorlik presslangan na‘munalarga nisbatan ~50 % ga ortdi.

5. 300÷600 K harorat intervalida maksimal quvvat va FIKga ega bo‘lgan p- va n-tipli ikkita termoelementlarning energetik tavsiflarini hisoblash uchun ishlab chiqilgan matematik model asosida algoritm va dasturiy ta‘minot ishlab chiqildi.

6. p-Bi₂Te₃-Sb₂Te₃ asosidagi 0,1 mol.% miqdorida Cd bilan legirlangan termoelementlarni 663 K harorat ostida toblash, termoEYuK koeffitsientining qiymatini 30% ga ortishiga olib kelishi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ ФИЗИКИ ПОЛУПРОВОДНИКОВ И МИКРОЭЛЕКТРО-
НИКИ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА**

ФЕРГАНСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ЛАТИПОВА МУХАЙЁ ИБРАГИМЖАНОВНА

**РАЗРАБОТКА СПОСОБА ПОВЫШЕНИЯ ДОБРОТНОСТИ
ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ ТЕРМОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ
МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ BiTeSe-BiSbTe**

01.04.10 – Физика полупроводников

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.3.PhD/T3800

Диссертация выполнена в Ферганском политехническом институте

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ispm.uz) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Касимахунова Анархан Мамасадиковна
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: Тагаев Марат Баймуратович
доктор технических наук, профессор
Тукфатуллин Оскар Фаритович
PhD по т.н., с.н.с.

Ведущая организация: Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова

Защита диссертации состоится 26 » 07 2024 года в 10 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 по присуждению ученых степеней при Научно-исследовательском институте Физики полупроводников и микроэлектроники Национального университета Узбекистана (Адрес: 100057, Узбекистан, г. Ташкент, ул. Янги Алмазар, дом 20. Тел: (+99871) 248-79-94, факс (+99871) 248-79-92, e-mail: info@ispm.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном Центре института (зарегистрирована за № 62) по адресу: 100057, Узбекистан, г. Ташкент, ул. Янги Алмазар, дом 20. Тел: (+99871) 248-79-59

Автореферат диссертации разослан «11» 07 2024.
(реестр протокола рассылки № 62 от 11.07 2024.)



Ш.Б. Угамурдова,

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф-м.н., профессор

Ж.Ж. Хамдамов,

Учленный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, PhD, с.н.с.

Н.А. Тургунов

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф-м.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире быстрое развитие теории и практики термоэлектрической техники, масштабное внедрение экологически чистых источников энергии, использование новых физических и технологических подходов к созданию высокоэффективных термоэлектрических материалов, устройств и источников энергии занимают одно из лидирующих мест. Использование термоэлектрических источников энергии в мировом масштабе требует внедрения устройств, позволяющих производить электроэнергию без загрязнения окружающей среды, а также обеспечивать электроэнергией отдаленные районы. В связи с этим для частичного удовлетворения спроса на энергию актуально использование автономных устройств, разработанных на основе термоэлектрических преобразователей энергии, способных напрямую преобразовывать любую тепловую энергию в электрическую.

В мире совершенствуются многие методы и технологии получения полупроводниковых соединений, проводятся научно-исследовательские работы, направленные на получение качественных термоэлектрических материалов для термогенераторов. В связи с этим особое внимание уделяется существующим методам основанным на технологию изготовления ветвей термоэлемента, изменению термоэлектрической добротности Z в зависимости от электрофизических параметров, по мнению большинства исследователей, многие существующие материалы с интегрируемыми термоэлектрическими свойствами считаются перспективными веществами, особое внимание уделяется введению в состав материалов легирующих веществ, изменению значений их параметров и регулировать их в определенной степени.

В нашей республике реализуются комплексные меры в связи с внедрением энергосберегающих технологий и развитием возобновляемых источников энергии и достигаются определенные результаты. Несмотря на то, что термоэлектрические генераторы заслуживают внимания по своим эксплуатационным и экономическим показателям, по их характеристикам, материалам и вопросам применения проводится относительно мало исследований по сравнению с другими странами. В рамках стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы по пяти приоритетным направлениям определены важные задачи, связанные с активным внедрением энергоэффективных технологий во все отрасли экономики. При реализации этих задач, среди прочего, используются современные методы создания термоэлектрических устройств с использованием системного подхода, разработки новых составов термоэлектрических материалов путем экспериментального подбора компонентов путем введения легирующих добавок, а также приобретает все большее значение проведения исследований в области усовершенствования технологии производства термоэлектрических устройств.

Исходя из этого, данная диссертационная работа в определенной степени служит для практического выполнения задач, поставленных в Указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы” №УП-60 от 28 января 2022 года, указ Президента “О дополнительных мерах по внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников энергии малой мощности” от 9 сентября 2022 года №УП-220, постановление Президента Республики Узбекистан “Об ускоренных мерах по повышению энергоэффективности отраслей экономики и социальной сферы, внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников энергии” от 22 августа 2019 г. №ПП-4422 и другими нормативно-правовыми документами связанными с этой отраслью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики Узбекистан III-«Энергетика, энергоресурсосбережение, транспорт, машино- и приборостроение; развитие современной электроники, микроэлектроники, фотоники, электронного приборостроения».

Степень изученности проблемы. К настоящему времени накоплен большой теоретический и экспериментальный материал по термоэлектричеству. Научные исследования в этой области проводятся ведущими учеными, такими как Т. Kajikawa и Y. Shinohara (Япония), L. Chen (Китай), V. Jovovich (США) и др., профессор А. Касьяна (Молдова). По ряду направлений таких как выбор оптимальной концентрации носителей тока для повышения добротности термоэлектрического материала работали Р.Симона, Р.Юр, Дж.Боррего, О.Боттгер (Германия).

При создании целого ряда термоэлектрических устройств для прямого преобразования тепловой энергии в электрическую необходимы высококачественные термоэлектрические материалы со стабильными характеристиками и высокой термоэлектрической добротности. В странах СНГ по этому направлению систематизированы и опубликованы ряд монографий Б. С. Позднякова, Е. А Коптелова, А.С.Охотина, А.А.Ефремова, В.С.Охотина, А.С.Пушкарского, А.Л.Вайнера, Э.В.Осиповой, Б.М.Гольцман. Теорией энергетического применения полупроводниковых термоэлементов получением уравнений теплового баланса, зависящих от температурной зависимости свойств материалов, работали А.И. Бурштейн и Б.Я. Мойжес. Е.К. Иорданишвили разработал метод расчета многослойного термоэлемента с учетом внутренних потерь. Также систематизированы данные по различным конструкциям ТЭГ и их характеристикам.

Резко возрастает также подготовка специалистов соответствующих профилей в ведущих университетах и технических вузах нашей страны. Исследования в этой области проводились такими учеными как, проф.,

Р.А.Авезов, проф. А.М.Касимахунова, Г.Абдурахманов, Б.Л. Оксенгендлер, Я.Усманов, М.Набиев, К.Гайназарова.

В результате вышеперечисленных исследований по совершенствованию технологии получения термоэлектрических материалов с высоким коэффициентом полезного действия и стабильными термоэлектрическими свойствами для создания устройств, предназначенных для прямого преобразования тепловой энергии в электрическую, не проведены в достаточной степени.

